

ADABIY TIL LEKSIKASINING DIALEKTAL  
SO‘ZLAR HISOBIGA BOYISHI

*Choriyev Ulug‘bek*

*Termiz davlat pedagogika instituti*

*O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 3-kurs talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada adabiy til leksikasining dialektal so‘zlar hisobiga boyib borishi hamda mazkur jarayonning o‘ziga xos xususiyatlari haqida mulohazalar bayon etilgan. Shuningdek, mavzuni o‘qitish borasida ham bir qancha tavsiyalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** dialekt, sheva, lahja, adabiy til, leksika.

**Annotation.** This article describes the enrichment of the lexicon of the literary language at the expense of dialectal words and the specific features of this process. Also, several recommendations were made regarding the teaching of the subject.

**Key words:** dialect, literary language, lexicon.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilining o‘zbek dialekti, shevalari asosida shakllangani ma‘lum. Shuningdek, adabiy til leksikasining rivojlanishi, takomillashuvida shevalarning o‘ziga xos rol o‘ynashi ham lingvistik adabiyotlarda qayd etilgan. Bunda umumadabiy tilga shevadan olinadigan so‘zlar ikki xil xususiyatga ega bo‘lishi mumkin:

1) ma‘lum hududdagina mavjud bo‘lgan narsalarni ifodalovchi so‘zlar. Masalan, bir joyda yilqichilik rivojlangan bo‘lsa, boshqa joyda baliqchilik rivojlangan. Ana shu joylarda yilqichilik va baliqchilikka oid tushunchalarni ifodalovchi so‘zlar ham bo‘ladi. Umumadabiy tilda yilqichilik va chorvachilikka oid biror tushunchani ifodalash talabi tug‘ilsa, uning ifodachisi bo‘lgan so‘z ana shu joydagi xalq tilidan, ya‘ni shevadan olinadi;

2) ma‘lum bir hudud bilan chegaralanmagan narsa-hodisani ifodalovchi so‘z barcha shevalarda emas, balki ulardan ayrimlarida bo‘lishi mumkin. Bunday so‘zlar ham vaqti kelib adabiy tilga qabul qilinadi. Masalan, ruscha skvoznyak so‘zi bildirgan hodisani bildiradigan so‘z 50-yillargacha ham o‘zbek adabiy tilida yo‘q edi. R. Abduraxmonov tahririda 1954-yilda nashr etilgan «Ruscha-o‘zbekcha lug‘at» da skvoznyak so‘zi «g‘o‘rillagan shamol» («bir yoqdan kirib ikkinchi yoqdan chiqadigan shamol») deb tarjima etilgan. Keyinchalik shevalarda bu hodisani bildiradigan yelvizak so‘zi borligi ma‘lum bo‘ladi va u adabiy tilga kirdi. Demak, shevalarda bor bo‘lgan har ikki tipdagi so‘zlar hisobiga adabiy til leksikasi boyib boradi.

Lekin shuni alohida qayd etish kerak bo‘ladiki, adabiy til leksikasining boyishida dialekt va shevalar yuqorida ko‘rib o‘tilgan yo‘llarga nisbatan, masalan, affiksatsiya

usuli bilan va kalkalash orqali soʻz hosil qilishga nisbatan u qadar rol oʻynamaydi. Shunday boʻlishi ham tabiiy. Chunki dialektal soʻzlar maʼlum hududdagi narsa-hodisalarni ularga oid tushunchalarni ifodalovchi soʻzlar boʻladi. Hayotda (dunyo miqyosida) paydo boʻlayotgan yangi-yangi narsa-hodisalarni ifodalash uchun dialektal soʻzlarni qoʻllash imkoni boʻlmaydi. Bunday holatlarda yangi paydo boʻlgan tushunchani ifodalash uchun tilning oʻz imkoniyatlari asosida yangi soʻz yaratiladi yoki boshqa tilda shu narsa, tushunchaning ifodachisi boʻlgan soʻz oʻzlashtiriladi. Xuddi shu boisdan bunday buyon leksikaning boyishida shevalarning adabiy tilga taʼsiridan koʻra adabiy tilning shevalarga taʼsiri koʻproq boʻladi. Demak, hozirgi oʻzbek adabiy tili leksikasining boyishida oʻzbek shevalarining roli haqida gap borganida yuqorida koʻrib oʻtilgan holat (faktor)larni aniq hisobga olish va bu hodisa (jarayon)ni obyektiv baholash kerak boʻladi. Biroq oʻzbek tili leksikasining rivojlanishiga oid ishlarda ana shu jarayonni obyektiv baholamaslik hollari kuzatilyapti. Ayrim ishlarda bu faktor, yaʼni adabiy til leksikasining rivojlanishida shevalarning roli juda orttirib taʼriflansa, ayrim ishlarda aksincha, unga yetarli (obyektiv) baho berilmaydi. Masalan, XX asrda oʻzbek tili leksikasining rivojlanishi bilan maxsus shugʻullangan filologiya fanlari nomzodi N. Gʻ. Gʻulomovanning bu hakdagi qarashlariga eʼtibor beraylik. Muallif oʻzbek adabiy tilida malina soʻzining qoʻllanishi normativ hodisa deb, ayrim shevalarda bu maʼnoda xoʻjagʻat (yoki maymunjon) soʻzi qoʻllanishini aytadi va shundan kelib chiqib malina soʻzini xoʻjagʻat soʻzi bilan almashtirish mumkinmi? degan savol qoʻyadi va faqat rad javob boʻlishi mumkin deydi. Buni asoslash uchun xoʻjagʻat soʻzining barcha sheva vakillari uchun tushunarli emasligi va bu maʼnoda hammaga tushunarli boʻlgan malina soʻzi qoʻllanayotganini aytadi. 1 Qaragʻat — smorodina soʻzlari haqida ham muallif xuddi shunday fikr bildiradi, yaʼni qaragʻat emas, smorodina soʻzini adabiy tilga qabul qilish toʻgʻri deb biladi (26, 64 —65-betlar). Lekin bu fikr haqida bir emas, bir necha eʼtiroz aytish mumkin. Birinchidan, xoʻjagʻat emas, malina soʻzining adabiy tilda qoʻllanishini nima bilan isbotlash mumkin? Ikkinchidan, barcha sheva vakillari uchun xoʻjagʻat soʻziga nisbatan malina soʻzining tushunarli ekanini nima bilan dalillash mumkin? Nahotki, oʻzbekning oʻzida bor boʻlgan narsani atovchisi (yaʼni xoʻjagʻat soʻzi)ga nisbatan oʻzbek tilida boʻlmagan soʻzni (malina)ni hamma tushunsa? Malina soʻzini adabiy norma deb majburiy qabul qilgan bilan shu meva oʻsadigan joydagi xalq ikki dunyoda ham malina soʻzini qoʻllamaydi (qoʻllash xayoliga ham kelmaydi). Uchinchidan, oʻz tilida biror narsa-hodisani aniq ifodalovchi soʻz boʻlgani holda uni chetga surib, shu vaqtgacha qoʻllanmagan, eshitilmagan oʻzga tilga oid soʻzni qabul qilishga qanday ehtiyoj boʻladi?! Bunday yoʻl tutish tilning tabiatiga, tilning taraqqiyot qonuniyatlariga tamomila ziddir. Xullas, ming yillardan beri oʻzingda bor narsaning ifodachisi boʻlgan soʻzni chetga chiqarib (talabga javob bermaydi deb), u narsani oʻzga tilga oid soʻz bilan atashni tavsiya etish oʻta kulgilidir.

Sheva vakillari o‘z nutqlarida xilma-xil so‘zlarni qo‘llashadi, ularning ma'lum qismi adabiy tilda ham, shevada ham ishlatilsa, ba'zi birlari faqat shevada yoki shevalararo qo‘llanadi. Shevada yoki shevalararo qo‘llanadigan so‘zlar dialektizmlar deyiladi. Shuning uchun ham ”Badiiy adabiyot va vaqtli matbuot tilidagi dialektizmlar, o‘zbek shevalarining lug‘at boyligi to‘la yig‘ib olinmaguncha, ayniqsa, o‘zbek shevalari lug‘ati sostavidagi leksik qatlamlarning qonuniyatlari, bu qatlamlarning aniq chegarasi, o‘zaro miqdoriy munosabatlari va bir-biriga munosabatlari aniqlanmaguncha ayni bir tushunchani ifodalovchi shevalararo so‘zlarning adabiy tilga munosabatini chuqur ilmiy asosda aniq belgilash mumkin emas”<sup>1</sup>.

Ularda sheva vakillarining maqsadi, kasbi, ro‘zg‘ori, urf-odati, an‘analari o‘z ifodasini topadi. Shevalarda qo‘llanadigan turli xil narsa va hodisalar nomlariga quyidagilarni ko‘rsatish mumkin: kiyim-kechak, rang, urf-odat, ovqat, harakat-holat va uy-ro‘zg‘or buyumlarining nomlari<sup>2</sup>.

Shevada kiyim-kechak, rang, urf-odat, oziq-ovqat va uy-ro‘zg‘or buyumlarining nomlari turlicha bo‘lgani uchun ularni alohida o‘rganish kerak deb bilamiz<sup>3</sup>. Mazkur bobda sheva leksikasiga oid quyidagi ma‘noviy guruhlarga e‘tibor qaratiladi: 1) shevada kiyim-kechak nomlari; 2) shevada belgi-xususiyat (rang) nomlari; 3) shevada urf-odat nomlari; 4) shevada oziq-ovqat nomlari; 5) shevada harakat-holat nomlari; 6) shevada uy-ro‘zg‘or buyumlarining nomlari .

Ular uchun keltirilgan dialektizmlar esa quyidagi ko‘rinishlarda bo‘lishi A.Ishayev tomonidan qayd etilgan: “DL(dialektal lug‘at)ga kiradigan dialektal so‘zlarning turlari haqida qisqacha ma‘lumot berishga harakat qilamiz:

1.Sof leksik-dialektal so‘zlar. Sheva, dialektlarda qo‘llanadigan, ularga xos leksikani adabiy til, xususan, sheva va adabiy til uchun mushtarak leksikadan farqlash maqsadida ularni sof leksik-dialektal so‘zlar deb atagan ma‘qul.

2.Etnografik-dialektal so‘zlar. O‘zbek adabiy tilida ham, shevalarimizda ham xalqimizning asrlar davomidan shakllangan qadimgi turmush tarzi, urf-odatlari, moddiy va ma‘naviy madaniyati bilan aloqador so‘z, terminlar mavjud.

3.Leksik-semantik dialektal so‘zlar. Sheva, dialektlardagi so‘zlar adabiy til-dagi, shuningdek, boshqa biror sheva, dialektidagi xuddi o‘sha xil so‘zlardan ma‘nosiga ko‘ra farqlanadigan bo‘lsa, ular leksik-semantik dialektal so‘zlar guruhini tashkil etadi. Masalan, adabiy til va shevalarda mavjud bo‘lgan “aka” so‘zi ayrim shevalarda “ota” va hatto “pochcha” ma‘nolarida qo‘llanadi.

---

<sup>1</sup>Abdurahmonov D.O‘zbek shevalari leksikasining taraqqiyot manbalari va ulardagi leksik farqlar // O‘zbek shevalari leksikasi.–Toshkent: Fan,1991.-B.12-85.

<sup>2</sup>Enazarov T.J., Karimjonova V.A. va boshqalar. O‘zbek dialektologiyasi. –Toshkent, 2012.-B.42-43.

<sup>3</sup>O‘zbek xalq shevalari lug‘ati.–Toshkent:Fan,1971.

O‘zbek shevalarida qo‘llanadigan turli xil sanash sistemalariga oid hisoblashlar ham leksik-semantik dialektal so‘zlardir, chunki bu hisoblarda ishtirok qiladigan son bildiruvchi so‘zlar adabiy tilda bor: besh y’gme (Namangan) - yuz (sto); omb’r yus - bir ming bir yuz. Bular DLdan o‘z o‘rinlarini olishlari shart.

4.Leksik-fonetik dialektal so‘zlar. Ma‘lumki, adabiy tildagi ko‘pchilik so‘zlar o‘zbek shevalarida xilma-xil fonetik o‘zgarishlarga uchraydi. So‘z boshida qo‘llanadigan adabiy tildagi y undoshi o‘rniga qipchoq lahjasiga oid j lashgan sheva vakillari, ko‘pincha, j undoshini talaffuz etadilar: jaman-yomon, joq-yo‘q; o‘sha shevalarda ayrim unlilar so‘z boshida diftonglashadi; tariq, sariq kabi so‘zlar oxiridagi q undoshi talaffuz etilmaydi; ayrim undoshlar tushirilib talaffuz etilgani tufayli ikkinchi darajali cho‘ziq unlilar vujudga keladi<sup>4</sup>.

5. Leksik-derivatsion dialektal so‘zlar. Adabiy tilda yoki faqat shevalarda mavjud bo‘lgan xilma-xil so‘z yasovchi affikslar shevalardagi so‘zlarga yoki adabiy til va shevalar uchun mushtarak so‘zlarga qo‘shilishi natijasida sheva, dialektlarda adabiy tilda uchramaydigan dialektal so‘zlar vujudga keladiki, ularni “leksik-derivatsion dialektal so‘zlar” deb atagan ma‘qul.

6.Morfologik-dialektal so‘zlar. Shevalardagi so‘z o‘zaklariga forma yasovchi affikslarni qo‘shish orqali vujudga kelgan morfologik-dialektal so‘zlar forma yasovchi affikslarning birgalikda qo‘llanishi, turli xil fonetik o‘zgarishlarga uchrashi yoki faqat shevalarga xos forma yasovchi affikslarning qo‘shilishi natijasida shevalarda əpəng‘lə - opanglar; otəluv’ //otəluy’ - otalari; həm-məl’ys’ - hammalari singari ancha morfologik dialektal so‘zlar paydo bo‘lgan.

7.Frazeologik-dialektal iboralar. O‘zbek sheva, dialektlarida mavjud bo‘lgan, adabiy tilda uchramaydigan, uchrasa ham ma‘noda farqlanadigan frazeologik iboralar, birikmalar bir butun , yaxlit holdagina biror ma‘noni, odatda, qo‘shimcha ko‘chma ma‘noni anglatadi. Xullas, o‘zbek sheva, dialektlardagi sof leksik, leksik-semantik, etnografik, leksik-fonetak, leksik-derivatsion so‘z, terminlarni va frazeologik dialektal iboralarni DLlarda, imkoni boricha, to‘la aks ettirmoq lozim<sup>5</sup>.

Masalan, deyarli barcha shevalarda qo‘llanilib, adabiy me‘yor sanaladigan ovqat so‘zini olaylik. Ovqat so‘zi o‘zlashgan so‘z bo‘lib, quyidagicha izohlangan: “Ovqat [oziq-ovqat, yegulik; ozuqa, yem; bu so‘z qut— ko‘pl. bo‘lib, u o‘zbek tiliga metateza yo‘li bilan o‘zlashgan: avqot < aqvot]. Rizqlanish, yeyish-ichish uchun tayyor narsa; yemish, taom, yemak. Ta‘mli ovqat. Issiq ovqat. Parhez ovqat. Xushxo‘r ovqat.

<sup>4</sup>Ta‘kidlash ma‘nosida har bir bandni alohida qatordan berildi.

<sup>5</sup>Qarang:Ahmad Ishayev.Shevalar lug‘atiga kiritiladigan so‘zlar // O‘zbek tili va adabiyoti. -1988. №2.-B.37-42.

Kechki ovqat. Tushki ovqat. Mulla Norqo‘z ovqatini yeb, choyga umidvor bo‘lib o‘tirganida, ko‘cha eshigidan yoshgina bir xotin kirib keldi<sup>6</sup>.

Har bir kishi ma‘lum bir kasb-hunarga ega bo‘lishi uchun o‘qiydi, o‘rganadi, intiladi. Matbuotda qayd etilishicha, ayni vaqtda kasb-hunarlarning miqdori yetti mingdan oshib ketgan. Bu esa kasb-hunar nomlariga e‘tibor oshganligini ham ko‘rsatadi. Shuning uchun ham ularning nomi, ularda qo‘llaniladigan leksik birliklar tilda ham, uning shevalarida ham ma‘lum bir darajada qo‘llanishi, saqlanib qolishi tabiiy holdir. Ushbu bobda shevamizda faol ishlatiladigan ba‘zi bir kasb-hunarga tegishli so‘zlarning saqlanishi, ma‘lum bir fonetik o‘zgarishlarga uchragan holda dialektal so‘z holiga kelib qolishi to‘g‘risida misollar keltiriladi. Miroqi shevasida kasb-hunarga oid ko‘p so‘zlar ishlatiladi. Chunki “O‘zbek xalqining so‘z boyligi xalqning o‘tmishi, hozirgi kuni, umuman butun borlig‘ini o‘zida mujassamlashtirgan. Shevalarimizdagi ana shu boyligni to‘plash, ularni yozib olib, lug‘atlar tuzish o‘zbek dialektologlari oldida turgan birinchi darajali vazifadir. O‘zbek sheva, lahjalari bo‘yicha tuziladigan bunday lug‘atlar faqat o‘zbek adabiy tili uchungina emas, balki o‘zbek tili tarixi, shuningdek, qardosh turkiy tillarni qiyosiy o‘rganish hamda o‘quvchilar, ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining og‘zaki va yozma nutqida uchraydigan sheva xatolarini bartaraf etish borasida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tipdagi lug‘atlar yana o‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi munosabati bilan o‘zbek tilining fonetik, morfologik va leksik normalarini, o‘zbek atamalarini tartibga solishda, o‘zbekcha-ruscha, o‘zbek tilining mukammal izohli lug‘atlarini yaratishda bebaho manba bo‘lishi shak-shubhasizdir”<sup>7</sup>.

Ta‘lim bosqichlari ona tili dastur va darsliklariga nazar tashlasak, shevaga xos so‘zlar mavzusini o‘rganishga ham yetarlicha soatlar hamda mavzular ajratilganiga guvoh bo‘lamiz.

O‘zbek shevalari o‘zbek tilining mahalliy ko‘rinishlari bo‘lib, uni o‘rganish fan uchun nazariy ahamiyat kasb etsa, bo‘lajak til va adabiyot o‘qituvchisi uchun amaliy ahamiyatga molikdir. Bu fanni o‘rganishdan maqsad, o‘zbek shevalarining eng muhim xususiyatlari - fonetik, leksik, morfologik va qisman sintaktik xususiyatlari haqida talabalarga to‘la ma‘lumot berishdir. Bu esa quyidagi vazifalarni keltirib chiqaradi:

- talabalarga o‘zbek dialektologiyasi bo‘yicha tayanch bilimlarni berish va shu asosda tayanch tushunchalar to‘g‘risida tasavvur hosil qilish;

- o‘zbek shevalarining fonetik, leksik va grammatik tarkibi haqida ma‘lumot berish; shevalarni o‘rganish metodlari to‘g‘risida tushuncha berish hamda sheva vakillaridan ma‘lum bir sheva xususiyatlarini yozib olish malakasini hosil qilish.

<sup>6</sup>O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 tomlik.3-tom.-Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.-B.82.

<sup>7</sup>Nosirov Sh. Shevalar lug‘ati - dolzarb masala // O‘TA. -1991.№3.-B.58-60. Bunda muallif yuqoriroqda keltirilgan A.Ishayevning fikrlarining mazmunini ilgari surmoqda.

O‘zbek tili boshqa turkiy tillardan ko‘p shevaliligi bilan farqlanadi. O‘tgan tarixiy davr ichida o‘zbek shevalari to‘xtovsiz taraqqiy etdi. Uning taraqqiyot tarixi va hozirgi davrini tushunish va izohlashda **sheva, dialekt, lahja** degan terminlar qo‘llanadiki, ularning lug‘aviy va terminologik ma‘nolarini bilish albatta zarurdir. Sheva forscha «ravish», «yo‘sin» degan ma‘nolarni bildirib, fanda biror tilning o‘ziga xos leksik, fonetik va grammatik xususiyatlari bilan farqlanib turadigan kichik qismini anglatadi.

**Dialekt** so‘zi grekcha bo‘lib, sheva degan ma‘noni anglatadi, ma‘lum til xususiyatlari jihatidan o‘xshash bo‘lgan shevalar yig‘indisini bildiradi.

**Lahja** arabcha so‘z bo‘lib, u ham, ravish, tarz, yo‘sin, sheva ma‘nolarini bildiradi. Dialektologik termin sifatida qadimda o‘zbek tilining taraqqiyotida asos bo‘lgan sheva va dialektlarning eng yirik to‘dasini anglatadi. O‘zbek tili o‘z tarixiy taraqqiyotida uchta lahjaning birligidan tarkib topgan. Ular quyidagilar:

**qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasi.** Bu lahja asosan shahar va shahar tipidagi shevalarni va dialektlarni qamrab oladi. Fanda bu lahja qisqacha **qarluq** lahjasi deb ham yuritiladi. Bu lahjaga kirgan shevalarning aksariyati turkiy tillarga xos bo‘lgan singarmonizmni yo‘qotgan. Shimoliy o‘zbek shevalari bundan mustasnodir.

**Qipchoq lahjasi.** Bu lahja vakillari O‘zbekiston Respublikasining Toshkent viloyati, Sirdaryo, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida yashaydilar.

**O‘guz lahjasi.** Bu lahja vakillari O‘zbekiston Respublikasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xorazm viloyati, Forish, Qorako‘l tumanlarida, Turkmanistonning Toshhovuz, Qozog‘istonning Iqon, Qorabuloq, Qoramurt, Mankert hududlarida istiqomat qiladilar.

## 2. O‘zbek tilining murakkab dialektal tarkibi.

Professor E.D.Polivanov asrimizning birinchi choragidayoq o‘zbek tili o‘zining ko‘p shevaliligi bilan boshqa turkiy tillardan ajralib turishi haqida o‘zining ilmiy ishlarida ma‘lumot bergan edi. Prof.V.V.Reshetov o‘zbek tili dialektal xaritasining rang-barangligini uning etnogenezidan qidirish lozimligini uqtiradi. Qadimda turkiy urug‘ va qabilalar miqdori ancha ko‘p bo‘lgan.

Shevaga xos so‘zlar haqida birinchi batafsil ma‘lumot V sinfda beriladi. Dasturda belgilangandek, shevaga xos so‘zlar mavzusini o‘rganishga 2 soat ajratilgan. Mazkur dars davomida o‘quvchilarga shevaga xos so‘zlar haqida boshlang‘ich ma‘lumot beriladi. Albatta, yuqori sinflarda mazkur mavzuga qayta murojaat qilinmagan. Ta‘limning keyingi bosqichi, ya‘ni akademik litsey va kasb- hunar kollejlari darsliklarida ushbu mavzuga batafsil to‘xtalib o‘tiladi. V sinf darsligini tahlil qilar ekanmiz shevaga xos so‘zlar haqida berilgan kichik hajmli qoidaga murojaat etishimiz o‘rinlidir.

**Bir tilning faqat ma’lum hududiga xos bo’lib, boshqa joylarda o’zgacha nom bilan yuritiladigan so’zlar shevaga xos so’zlar sanaladi. Bu so’zlardan bittasi umumxalq tili bo’lgan adabiy til uchun qabul qilinadi va ana shu so’z adabiy til uchun me’yor sanaladi.**

**Yuqoridagi so’zlar ichida *do’ppi* so’zi adabiy me’yor, *kallapo’sh, qalpoq, takya* so’zlari esa shevaga xos so’zlardir.**

8

Albatta, mazkur mo’jaz qoida o’qituvchi tomonidan yanada to’ldiriladi va mavzu mustahkamlanadi. Aynan V sinf darsligi mualliflari tomonidan tuzilgan akademik litseylarining II bosqich o’quvchilari uchun Hozirgi o’zbek adabiy tili darsligida ham dialektal leksemalar haqida ma’lumotlar berilgan. II bosqichga qadam qo’yan o’quvchi ilk bora aynan adabiy til va shevalarning farqini o’rganish bilan fan va darslikka kirib boradi. Ushbu darslikda shevalarga quyidagicha ta’rif berilgan:

Har kuni radio va televideniye orqali turli axborotlarni eshitganingizda, gazeta va jurnallar o’qiganingizda, siz mansub bo’lgan qishloq yoki shahar aholisi gaplashayotgan tilning radio, televideniye, matbuot tilidan ma’lum farq qiladigan tomonlarini payqaysiz. Bundan ko’rinadiki, hozirgi o’zbek tilimiz adabiy til va mahalliy xalq shevalarini o’z ichiga oladi.

Adabiy til har qanday tilning oliy shakli sanaladi va lug’at tarkibining boyligi, grammatik qurilishining tartibga solinganligi, qat’iy me’yorlarga amal qilishi, uslubning rivojlanganligi bilan xarakterlanadi.

Bu jihatdan adabiy til xalq shevalariga qarama-qarshi qo’yiladi.

**Faqat muayyan bir hududga xos ayrim belgilarni o’zida namoyon qilgan til shakli mahalliy shevalar hisoblanadi.**

Shevalar shu xususiyatlari bilan boshqa hududga mansub shevalardan va ayni paytda adabiy tildan farq qiladi.

Adabiy til xalq shevalaridan oziqlangan holda muttasil rivojlanib boradi. Demak, adabiy til xalq shevalaridan uzilgan til emas.

Adabiy til xalq shevalari negizida so’z ustalari tomonidan umumlashtirish, qat’iy me’yorlarni ishlab chiqish yo’li bilan hosil qilinadi. Hozirgi o’zbek adabiy tili ko’proq qarluq, qisman qipchoq va o’g’uz shevalari negizida vujudga kelgan. Qarluq shevasi vakillari ko’proq Farg’ona vodiysi, Toshkent, Samarqand, Qarshi shaharlari va ularning atroflaridagi hududlarda istiqomat qilishadi. Shuningdek, bu sheva vakillarini Markaziy Osiyoning bir qancha joylarida, xorijiy mamlakatlarda ham uchratish mumkin. Har bir ziyoli o’zi mansub bo’lgan hudud tili xususiyatlaridan qutulib, adabiy

<sup>8</sup> Mahmudov N, Nurmonov A., Sobirov A., Qodirov V., Jo’raboyeva Z. Ona tili. Umumta’lim maktablarining V sinfi uchun darslik. – Toshkent: Ma’naviyat. 2015. 194-bet.

tilda gapirish ko‘nikmasiga ega bo‘lmog‘i lozim. Masalan, ashi, kevotti, kelutti, kelopti, oka, aqa-baqa singari shakllarni nutqda qo‘llash so‘zlovchida nutq madaniyatining shakllanmaganligidan dalolat beradi<sup>9</sup>.

Kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun nashr etilgan Ona tili va adabiyot darsligida esa shevalarga berilgan yana bir ta’rifni uchratamiz:

Til bir jihatdan tabiat va insondagi go‘zallikni aks ettiruvchi vosita bo‘lsa, ikkinchi jihatdan unda go‘zallikni vujudga keltiruvchi javharlar ham mavjud. Tilga go‘zallik javhari sifatida nazar soladigan bo‘lsak, uning kishini hayratlantiradigan darajada yetukligi bor. Qaysi bir tilni olmag, undagi tovushlar yuzga yetmaydi. Masalan, hozirgi o‘zbek adabiy tilida o‘ttiz bitta tovush bor. O‘zbek tiliga tarixan nazar solgan vaqtimizda yoki shevalarni hisobga olganimizda ko‘proq bo‘ladi, ammo qirqtadan oshmaydi. Mana shu qadar ozgina tovushdan o‘zbek tili tarixida milliondan ortiq so‘z yasalgan va bu so‘z yasalishi kerak bo‘lgan taqdirda cheksiz davom etishi mumkin. Tilning mana shu yetukligi uning go‘zalligini va undan foydalanuvchining, ya’ni so‘zlovchining yoki yozuvchining nutqiy mahoratini ta’minlaydi.<sup>10</sup>

Albatta, har uchala darslikda ham keltirilgan nazariy ma’lumotlar yetarli emasdek. Buning barchasi esa o‘qituvchi zimmasiga mas’uliyat yuklaydi. O‘qituvchi o‘quvchilariga mavzuni batafsil tushuntirib bera olishi darkor. Mavzu mustahkamlanishida esa yana darsliklarga murojaat etiladi. Darslikda keltirilgan mashqlar ham e’tiborga molik. Jumladan, biz yuqorida qayd etib o‘tgan A. Rafiyev va N. G‘ulomovalarning darsligida quyidagicha mashq keltiriladi:

### **70- topshiriq.**

**O‘z shevangizga xos so‘zlashuv uslubining belgilarini adabiy til me’yorlari bilan qiyoslang va farqlarini tushuntiring.**

Mashq bir qarashda o‘quvchiga murakkablik qilmaydi. Chunki mamlakatimizning turli mintaqalarida yashovchi har bir o‘quvchining o‘z shevasi bor. Muddao esa boshqa, ya’ni o‘quvchi adabiy tilni nechog‘lik yaxshi biladi. Ko‘p hollarda o‘quvchilar o‘z shevalariga judayam o‘rganib qolgan bo‘ladilar va ular adabiy til va sheva chegarasini tinglab ajratsalar-da, o‘z nutqlarida farqlay bilmaydilar. Bunday hollarning oldini olish esa yana ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisining zimmasiga tushadi. Mazkur mavzularni o‘qitishda o‘qituvchi, albatta, ilg‘or pedagogik texnologiyalarga murojaat etishi tabiiy. Ona tili fanidan DTSga nazar tashlasak, V sinf o‘quvchisining bilimiga quyidagi talabalar qo‘yilishi e’tiborimizni tortadi. Leksikologiya so‘z haqidagi fan bo‘lib, muayyan tilda ishlatiladigan barcha so‘zlar shu tilning lug‘at boyligini tashkil qiladi. Tilshunoslikning bu bo‘limi so‘z va uning

---

<sup>9</sup> Nurmonov A. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Akademik litseylarning II bosqich o‘quvchilari uchun darslik. – Toshkent: Ilm ziyo. 2015. 12-bet.

<sup>10</sup> Rafiyev A., G‘ulomova N. Ona tili va adabiyot. Kasb-hunar kolleji o‘quvchilari uchun darslik-majmua. – Toshkent: Sharq, 2014. 31-bet.



ma'nolarini o'rganish bilan shug'ullanadi. Shu sababli bu bo'lim o'quvchi so'z boyligini oshirish va boyitishda katta imkoniyatga ega. Bu bo'lim 5-sinfda izchil kurs sifatida o'rgatiladi. Leksikologiyani o'rganish jarayonida so'zning atash ma'nosi, o'z va ko'chma ma'nosi, ma'nodosh, uyadosh, shakldosh, zid ma'noli so'zlar, paronimlar, tarixiy va arxaik so'zlar, yangi paydo bo'lgan so'zlar, shevaga xos so'zlar, atamalar, tasviriy ifoda va iboralar kabi hodisalar bilan tanishiladi. Oliy o'quv yurtlarining o'zbek tiliga ixtisoslashgan yo'nalishlarida O'zbek dialektologiyasi alohida fan sifatida o'qitiladi. Bugungi kunda ta'lim-tarbiya jarayonida ommalashib ketgan pedagogik texnologiyalardan biri FSMU texnologiyasi sanaladi.

Tavsiya qilinayotgan FSMU texnologiyasi amal qilayotgan vaqtda, ya'ni dars o'tish vaqtida quyidagi jarayonning bir butun tarzda tahlil hamda talqinini kuzatishimiz mumkin: (F) - fikringizni bayon eting, (S) – fikringizning bayoniga biron sabab ko'rsating, (M) – ko'rsatgan sababingizni isbotlab, misol (dalil) keltiring va (U) – fikringizni umumlashtiring. Bularni amalga oshirish bilan shevashunoslikdagi biror bir mavzu doirasida (masalan, shevada dialektizmlar, etnografizmlar, onomastik birliklarning dialektal ko'rinishlari va ularning turlarini yig'ish hamda jamlash bilan bog'liq mavzular) talabning bilimiga mos materiallarni yig'ib olish imkoniyati bo'ladi. Masalan, talabalarga bitta oraliq nazorat to'shirig'i sifatida o'zlarining shevalariga oid fonetik, leksik yohud grammatikaga oid materiallarni yig'ish to'shirig'i (vazifasi) sheva xususiyatlarini ochib beruvchi maxsus mavzular tarzida aytilsa, xuddi shu pedagogik texnologiyadan foydalanilgan holda uni bajarish va bajarilgan to'shiriqni vaqtida, tez va aniq holda tahlil etish mumkin bo'ladi.

Albatta, pedagogik texnologiyalarni o'rinli holda amalda qo'llash, ya'ni ularni fanning biror bir mavzusini o'tishda joriy etish jarayonida fan o'qituvchilaridan yillar mobaynida shakllangan pedagogik mahoratni talab qiladi. Shuning uchun ham "O'zbek dialektologiyasi" fanidan dars o'tishda mavjud pedagogik texnologiyalarni tanlab, saralab olib, qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Maktabda leksikologiya bo'limini o'tishda ko'zlanadigan asosiy maqsad o'quvchilarni o'zbek adabiy tilining so'z xazinasiga olib kirish, ularning so'z boyligini oshirish va so'zdan to'g'ri ham o'rinli foydalanish malakalarini rivojlantirishdan iboratdir.

Bu bo'limni o'rganishda quyidagi vazifalar hal qilinadi:

- so'zning shakl va ma'no qirralarini tushunish;
- o'quvchilarning lug'at zahirasi yangi so'zlar bilan boyitish;
- o'quvchilarda amaliy-sitilistik malakalarini takomillashtirish;
- nutq uslublari farqlashga, ayni bir narsa, voqea-hodisani oddiy, badiiy va ilmiy uslublarda bayon qilishga o'rgatish;
- nutq sharoitiga mos ravishda so'z tanlash malakalarini hosil qilish;
- turli lug'atlar bilan ishlash malakalarini hosil qildirish.

Demak, xulosa qilib aytganda, o‘quvchi adabiy tilda ravon so‘zlash bilan birga o‘z shevasini ham e‘tibordan chetda qoldirmasligi zarur. Negaki, adabiy til shevalarimiz hisobiga boyib boradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T., 2008.
2. Ashirboyev S. Dialektologiya. –T.: Sharq, 2013.
3. G‘ulomov A., Qodirov M. Ona tili o‘qitish metodikasi. –T.: Universitet, 2001.
4. G‘ulomov Y. va boshq. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. –T.: O‘qituvchi, 1975.
5. G‘ulomov A, Qobilova B. Nutq o‘stirish mashg‘ulotlari. –T.: O‘qituvchi, 1995.
6. G‘ulomov A. Ona tili o‘qitish prinsiplari va metodlari. –T.: O‘qituvchi, 1992.
7. To‘xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. –T., 2006.
8. Qodirov M., Ne‘matov H. va b. Ona tili, 8-sinf darsligi. –T., 2008.
9. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturi // Ta’lim taraqqiyoti 1-maxsus son. Ona tili. Adabiyot. –T., 1999.
10. O‘zbek tili doimiy anjumani materiallari (1991, 1993, 1995, 1997, 1999, 2001, 2003, 2005, 2007, 2009).
11. O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari. –T., 1999.